

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari to‘g‘risida Ma‘lumotnoma

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi” tomonidan 2025/2026-o‘quv yilning **10-24-dekabr** kunlarida milliy ta’lim tizimining taraqqiyoti, rivoji va unda uchrayotgan ba’zi bir salbiy hodisalardan ogohlantirish va ularga qarishi turish yo‘llarini izlash maqsadida, hamda ta’lim sifati bo‘yicha anonim shaklda **so‘rovnoma tadqiqoti** o‘tkazildi.

Ushbu anonim shakldagi so‘rovnoma tadqiqotda institutning **4618 nafar** talabalari **ellikta** ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ishtirok etishdi. Shundan **1651 nafar 1-kurs, 896 nafari 2-kurs, 947 nafari 3-kurs, 621 nafari 4-kurs va 503 nafari 5-kurs** talabalarini tashkil etdi.

Institut bo‘yicha umumiy hamda fakultetlar bo‘yicha tahlil natijalari (**2 varaqda**) ilova qilinmoqda.

So‘rovnoma tahlili:

4. Professor-o‘qituvchilarning darsda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanib darslarni tushunarli va qiziqarli o‘tilishi sizni qoniqtiradimi? savoliga institut bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko‘p 3750 nafari (81,2 foizi)** ha doim, talabalarning **822 nafari (17,8 foizi)** qisman va **eng kam 46 nafari (1,0 foizi)** yo‘q deb javob berishgan. Fakultetlar bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlar jadvali ilova qilinadi.

5. Baholash jarayoni adolatli va shaffof o‘tkaziladimi? savoliga institut bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etganlarning **3929 nafari (85,1 foizi)** ha, **632 nafari (13,7 foizi)** qisman va **57 nafari (1,2 foizi)** yo‘q deb qo‘yidagilarni belgilashgan:

7. Institutda raqamli ta'lim muhiti yaratilganlik holati (kutubxona va internet resurslariga kirish imkoniyati qanday, LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar masofaviy ta'lim imkoniyatlari) qanday? degan savolga institut bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko‘p 3890 nafari (84,2 foizi)** erkin va yetarli, **640 nafari (13,9 foizi)** cheklangan va **88 nafari (1,9 foizi)** mavjud emas deb javob berishgan.

8. O‘qish faoliyatingizda korrupsion holatlarga duch kelganmisiz (qaysi holatlarda: qabul jarayoni; yotoqxonaga joylashish; davomat masalasida; imtihon va baho olish jarayoni)? degan savolga institut bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko‘p 4043 nafari (87,5 foizi)** bizda korrupsion xolatlar umuman yo‘q deb, **365 nafari (7,9 foizi)** qabul jarayonida deb, **109 nafari (2,4 foizi)** imtihon va baho olishda deb, **46 nafari (1,0 foizi)** davomat masalasida va **55 nafari (1,2 foizi)** yotoqxonaga joylashish masalasida deb javob berishgan.

9. O‘quv fanlaridan bo‘ladigan ma‘ruza va amaliyot mashg‘ulotlarining sifati sizni qanchalik qoniqtiradi? degan savolga institut bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko‘p 3868 nafari (83,8 foizi)** barcha professor-o‘qituvchilar mashg‘ulotlarni yuqori saviyada olib borishadi, **628 nafari (13,6 foizi)** o‘quv mashg‘ulotlarining yarmisi qiziqarli, yarmisi o‘ta zerikarli o‘tadi, **39 nafari (0,8 foizi)** o‘tilayotgan ma‘ruza va amaliyot mashg‘ulotlarining sifati umuman qoniqtirmaydi, **51 nafari (1,1 foizi)** professor-o‘qituvchilarning ba’zilari ma‘ruza mashg‘ulotlari o‘tish o‘rniga, hayotlarini gapirib beradilar va **32 nafari (0,7 foizi)** darslar tahlilini ChatGPT yordamida kuzatib boramiz, ko‘pincha noto‘g‘ri ma‘lumotlar beriladi deb javob berishgan.

10. Professor-o‘qituvchilar tomonidan dars mashg‘ulotlarini muntazam ravishda barbod qilish holatlari uchrab turadimi? degan savolga institut bo‘yicha so‘rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko‘p 4338 nafari (93,9 foizi)** professor-o‘qituvchilar barcha darslarning o‘z vaqtida o‘tilishiga ma‘suliyat bilan yondoshadilar, **124 nafari (2,7 foizi)** ba’zi professor-o‘qituvchilarning ism-shariflari dars o‘tish jadvalida turadi, lekin umuman darsga

kirmaydilar, **58 nafari (1,3 foizi)** yosh domlalar, assitsentlarni darslarga kiritish holatlari ko'payib ketgan, **44 nafari (1,0 foizi)** ba'zi professor-o'qituvchilar eng so'nggi paradagi darslar mashg'ulotlarini o'tmaydilar, yoki qisman o'tadilar, **30 nafari (0,6 foizi)** lavozimda ishlaydigan, o'rindoshlik asosida keladigan professor-o'qituvchilar ko'pincha darslarni o'tmaydilar va **24 nafari (0,5 foizi)** professor-o'qituvchilar tomonidan darslarni barbod qilish odatiy hodisa hisoblanadi va tez-tez takrorlanadi deb javob berishgan.

11. Mutaxassisligingiz bo'yicha amaliyot bazalari mavjudmi hamda institutda amaliyot (praktika) jarayonlari qanday yo'lga qo'yilgani? degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 4087 nafari (88,5 foizi)** amaliyot bazalari mavjud, yaxshi yo'lga qo'yilgan, **388 nafari (8,4 foizi)** amaliyot bazalari qisman mavjud, amaliyot (praktika) nomiga bo'ladi, **143 nafari (3,1 foizi)** amaliyot bazalari umuman yo'q, yaxshi yo'lga qo'yilmagan deb javob berishgan.

12. Talabalar fikrlari va takliflariga rahbariyat e'tibor qaratadimi? savoliga **3703 nafari (80,2 foizi)** ha, **806 nafari (17,5 foizi)** qisman va **109 nafari (2,4 foizi)** yo'q deb javob belgilagan.

13. Institutdagi maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlari (masalan, dekanat, psixolog, karyera markazi) qoniqarli darajada ishlaydimi? savoliga **eng ko'p 3916 nafari (84,8 foizi)** ha, **595 nafari (12,9 foizi)** qisman, **eng kam ko'rsatkich 107 nafari (2,3 foiz)** yo'q deb javob berishgan.

14. Institutda talabalar uchun tashqi faoliyat (to'garaklar, sport, madaniy tadbirlar) yetarli darajada tashkil etilganmi? savoliga, **eng ko'p 3671 nafari (79,5 foizi)** ha, **800 nafari (17,3 foizi)** qisman va **eng kam ko'rsatkich 147 nafari (3,2 foizi)** yo'q deb javob berishgan

15. O'zingiz ta'lim olayotgan institutning bugungi ta'lim jarayonini qanday baholaysiz? degan savolga institut bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning **eng ko'p 3645 nafari (78,9 foizi)** ta'lim jarayoni texnik imkoniyatlar bilan sifatli tashkil etilgan, **695 nafari (15,1 foizi)** an'anaviy va zamonaviy ta'lim tizimi ko'pincha uyg'unlashib ketadi, **190 nafari (4,1 foizi)** zamonaviy ta'lim tizimiga to'liq ixtisoslashib bo'lingan, **60 nafari (1,3 foizi)** o'quv mashg'ulotlari sifatsiz bo'lib, past saviyada olib boriladi va **27 nafari (0,6 foizi)** darslarga umuman qiziqishim yo'q, HEMISni amallab yopsam bo'ldi deb javob berishgan.

Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i: D.Shukurov